

## **8-Mavzu: Bog'da**

### **Dars maqsadi:**

- Mirmuxsining “Olxo‘ri va o‘rik” ertagi bilan tanishtirish;
- muloqotga kirisha olish ko‘nikmasini shakllantirish;
- qayta hikoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Tayanch so‘zlar:** zumrad, bog‘, o‘rik, olxo‘ri, dovucha.

**Didaktik materiallar:** mevalar rasmi.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Darsning kirish qismi. (5 daqiqa)**

Darsni tashkillashtirib olish.

**Faollashtiruvchi mashqni** o‘tkazish Chizmaga mos so‘zlar ayting.



#### **II. O‘tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)**

“Suv va Daraxt” ertak mazmuni so‘zlab beriladi. Sevimli ertagingiz haqida ma’lumot tayyorlang.

#### **III. Darsning asosiy qismi. (25 daqiqa)**

**Amaliy topshiriq.**

**“Mendan so‘ra”** mashqi.

Partadoshingizdan quyidagi savolga qanday javob berishini bilib oling.

*Agar mevalar so‘zlasha olganda, siz ular bilan nima haqida suhbatlashgan bo‘lardingiz?*

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Partadoshingiz bu savolga qanday javob berdi?
2. Kimning javoblari partadoshi bilan bir xil?

#### **Mavzuni tushuntirish.**

1. Darslikdagi rasm orqali suhbat uyushtiriladi.
2. Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?
3. Bog‘da nimalar o‘sadi?

Siz qanday mevalarni iste’mol qilishni yaxshi ko‘rasiz?



**Matn ustida ishlash.** Mirmuhsin Mirsaidov — shoir va yozuvchi. U bolalar uchun ko'plab she'r va dostonlar, hikoyalar yaratgan. Uning "Sheralining mardligi", "Ovchi bolalar", "Luqmon va O'roqboy" kabi asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Mirmuxsining "Olxo'ri va o'rik" ertagi o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Ertakda bahor fasli qanday tasvirlangan?
2. Zumrad bog'da nima qildi?
3. Nima deb o'ylaysiz pishgan mevalarni iste'mol qilishning foydasi nima?
4. Ertakdan qanday xulosa qildingiz?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

**puchuq** – burni yassi, yopishgan.

Darslikdagi topshiriqlar bajariladi. Zumradga tavsif beriladi.

Zumrad- jamalak sochli, puchuqqina, ...

**"Tanlab o'qish"** mashqi.

1. Ertakdan ko'm-ko'k, sap-sariq, tap-tap, paq-paq so'zlari ishtirok etgan gaplar topib o'qiladi.

2. Dovuchcha va pishgan mevaning gaplari topib o'qiladi.

Juftlikda darslikda berilgan topishmoqning javobi topiladi.

Osh ichida tosh

Tosh ichida osh. (o'rik)

Gulsiz bo'lar mevasi,

Shirin – shakar donasi.(anjir)

O'quvchilarga qo'shimcha tarqatma sifatida krossvord berilishi mumkin.

Rasmi krossvordni yeching va 7- raqam ostida yashiringan meva nomini toping.



3



6



10



A crossword puzzle grid with the following words filled in:

- Across:
  - 1B (top)
  - E
  - H
  - N (in row 3)
  - J (in row 3)
  - I (in row 3)
  - R (in row 3)
  - L (in row 4)
  - M (in row 4)
  - A (in row 4)
  - N (in row 5)
  - O (in row 5)
  - X (in row 8)
  - U (in row 9)
  - R (in row 9)
  - M (in row 9)
  - O (in row 9)
- Down:
  - S (in row 2)
  - A (in row 3)
  - F (in row 4)
  - T (in row 4)
  - O (in row 4)
  - L (in row 5)
  - I (in row 6)
  - K (in row 7)
  - O (in row 7)
  - L (in row 7)
  - X (in row 7)
  - O (in row 8)
  - R (in row 8)
  - I (in row 8)
  - Z (in row 9)
  - U (in row 10)
  - M (in row 10)
  - O (in row 10)
  - K (in column 3)
  - I (in column 4)
  - R (in column 5)

**Mashq daftari bilan ishlash.** Mevaning rasmini chiziladi

Tez aytish musobaqasi o'tkaziladi.

Ko'm-ko'k kurtak ko'katlar  
Ko'klamga ko'rк ko'rsatar.

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?
  - Biz bugun darsda nimalarni bajardik?

**V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)** Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Ertakdagi bog'ni rasmda tasvirlang.

## **9-Mavzu: Bo'lim yuzasidan takrorlash**

## Darsning maqsadi:

- "Ertaklarning sehrli olamidan bahra olamiz" bo'limi yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarini mustahkamlash.
  - jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
  - dunyoqarashini kengaytirish, tezkorligini oshirish.

**Tayanch so zlar:** ertakdagı qahramonlar, Mubinahing ertagi,

**Didaktik materiallar:** A4 formatdagı qog'oz, ranglı qalamlar.